

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKYENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
"RAQAMLI IQTISODIYOT VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI"
KAFEDRASI**

Qo'lyozma huquqida

UDK:6H2.15.7:336.5

Xayitbayeva Sohibjamol Alisher qizi

**TIJORAT BANKLARIDA XIZMAT KO'RSATISH JARAYONLARINI
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI TAKOMILLASHTIRISH
YO'NALISHLARI**

**70310106 – Iqtisodiyotda axborot texnologiyalari va tizimlari
mutaxassisligi bo'yicha**

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA


Ilmiy rahbar: prof. Mo'minov.B.

TOSHKENT – 2024

Magistrlik dissertatsiya ishi “Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrasida dastlabki himoyadan o‘tgan.

6 sonli bayonnoma « 25 » aprel 2024 y.

Kafedra mudiri: Vafoyev B.R.




22.05.24

imzo

sana

Ilmiy rahbar: Mo‘minov.B.



22.05.24

imzo

sana

Talaba: Xayitbayeva S.A.




22.05.24

imzo

sana

“Himoyaga tavsiya etiladi”

“Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrası

mudiri, dots .i.f.n. B.R. Vafoyev 

“ 17 ” 05 2024 yil

Himoya 2024 yil “ _____ ” soat _____ da Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bo‘lib o‘tadi.

ANNOTATSIYA

Yangi bank mahsulotlari va xizmatlarini, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni bank tizimiga joriy qilish hamda rivojlantirish O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki bu banklarning raqobatbardoshligini, bank mahsulotlarining sifatini oshiradi, o'z navbatida milliy iqtisodiyot sohasining modernizatsiyalashini ta'minlaydi. Keyingi yillarda respublikamiz tijorat raqamli banklari chakana operatsiyalarni rivojlantirish orqali o'z mijozlariga taqdim etiladigan xizmatlar turlarini ko'paytirishga va o'z faoliyatini diversifikatsiya qilishga harakat qilmoqda. Ushbu maqsadda banklar tomonidan bankomatlar, mobil telefonlar va internet orqali o'z hisob raqamlarini masofaviy boshqarish kabi elektron xizmat ko'rsatish texnologiyalari faol tarzda amaliyotga joriy etilmoqda. Xususan, raqamli bank xizmatlari so'nggi yillarda bank sanoatining "ajralmas" qismiga aylanmoqda. Ular mijozlarga qulaylik, foydalanish imkoniyati va xavfsizlik kabi keng turdagi imtiyozlarni taklif etmoqda. Raqamli bank xizmatlari mijozlarga jismoniy filialga tashrif buyurmasdan turib, masofadan turib bank operatsiyalarini amalga oshirish va bank xizmatlaridan foydalanish imkonini bermoqda. Bu, ayniqsa, odamlar texnologiyaga tobora ko'proq tayanib, o'z bizneslarini onlayn tarzda yuritishni afzal ko'rayotgan bugungi dunyoda muhim. O'zbekiston bank sohasida yangi texnologiya va yangi mahsulotlarni kiritish – bu xizmat turini takomillashibgina emas, axborot ba'zasini unumli boshqarish, aholining o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchunligini e'tirof etgan holda mazkur dissertatsiya ishi mavzusini dolzarb deb hisoblanadi.

Dissertatsiya ishida tijorat raqamli bank xizmatlarini ko'rsatishning nazariy asoslari, mavzuga oid adabiyotlar tahlil qilindi. O'zbekiston Respublikasida raqamli banklarning huquqiy asoslari o'rganib chiqildi. Tijorat raqamli banklari tomonidan plastik kartochkalar orqali masofaviy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq muammolar shakllantirildi. Tijorat raqamli bank xizmatlarining xorij amaliyotida qo'llanilishi o'rganildi va tahlil qilindi. ID kartalari va barmoq izini tanib olish

bo'yicha avtomatlashtirilgan kassa mashinasi operatsiyalari va mijozlarga tezkor (shaxssiz) kartalarni chiqarish hamda berish yo'nalishlari o'rganilib taklif qilindi.

Kalit so'zlar: tijorat raqamli banki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, arxitektura, avtomatlashtirilgan kassa mashina, "Bank-mijoz" dasturi, internet-banking, SMS-banking, mobil banking, autentifikatsiya tizimi.

SUMMARY

Introduction and development of new banking products and services, modern information and communication technologies in the banking system is one of the main directions of further development of the Republic of Uzbekistan. Because it increases the competitiveness of banks, the quality of banking products, and in turn ensures the modernization of the national economy. In recent years, commercial banks of our republic have been trying to increase the types of services offered to their customers and diversify their activities by developing retail operations. For this purpose, banks are actively implementing electronic service technologies such as ATMs, mobile phones and remote management of their account numbers via the Internet. In particular, digital banking services have become an "integral" part of the banking industry in recent years. They offer a wide range of benefits to customers such as convenience, accessibility and security. Digital banking services allow customers to perform banking transactions and access banking services remotely without visiting a physical branch. This is especially important in today's world where people increasingly rely on technology and prefer to run their businesses online. The topic of this dissertation is considered relevant, recognizing that the introduction of new technology and new products in the banking sector of Uzbekistan is not only for improving the type of service, but also for the efficient management of the information base and for meeting the growing needs of the population.

The theoretical basis of providing commercial digital banking services and literature on the subject were analyzed in the dissertation work. The legal basis of

digital banks in the Republic of Uzbekistan was studied. Problems related to remote service provision through plastic cards were formed by commercial digital banks. The application of commercial digital banking services in foreign practice was studied and analyzed. Automated cash register operations for identification of ID cards and fingerprints, as well as directions for issuing and issuing fast (impersonal) cards to customers, were proposed.

Key words: *commercial digital bank, information and communication technologies, architecture, automated cash register, "Bank-client" program, internet banking, SMS banking, mobile banking, authentication system.*

MUNDARIJA		
Annotatsiya.....		3
Mundarija.....		6
Keltirilgan jadvallar ro'yhati.....		7
Keltirilgan rasmlar ro'yhati.....		8
Keltirilgan qisqartmalar.....		9
KIRISH		10
Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi		10
Tadqiqot maqsadi va vazifalari		11
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari		12
Tadqiqot ob'yekti va predmeti		13
Tadqiqotning ilmiy yangiligi		13
Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati		13
Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi		14
I-BOB.	ADABIYOTLAR SHARHI	15
1.1.	Kirish	15
1.2.	Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi	23
1.3.	Mavzuga oid meyoriy-huquqiy hujjatlar sharhi	25
II-BOB.	METODOLOGIYA	36
2.1.	Ma'lumotlarni to'plash jarayoni	36
2.2.	Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar	36
2.3.	Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar	37
2.4.	Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi...	37
2.5.	Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar	38
III-BOB.	TAHLIL VA NATIJALAR	39
3.1.	Tijorat banklarning masofaviy bank xizmatlarida qo'llaniladigan texnologiyalari yordamida xizmat ko'rsatishning amaliy holati tahlili ..	39
3.2.	Bankni raqamli transformatsiyalashtirishda Agile Scrum tezkor metodining qo'llanilishi tahlili.....	46
3.3.	Kredit kartalari va mikroqarzlarni taqdim etishda tadbiiq etilgan kredit skoring modellari platformasining tutgan o'rni.....	63
XULOSA		71
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI		72
ILOVALAR		78

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

Iqtisodiyot rivojlanishining hozirgi bosqichida Respublikamizda faoliyat yuritayotgan banklarning roli tobora ortib bormoqda. Chunki xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar va jismoniy shaxslarning hech biri bank xizmatini chetlab o‘tib faoliyat yurita olmaydi, o‘zaro hisob-kitoblarini bank yordamisiz amalga oshira olmaydi. Shu sababli bank tizimini mustahkamlash, ularning erkinligini oshirish yo‘lida islohotlarga hukumat miqyosida e’tibor berib kelinmoqda. Chunki bank tizimida o‘tkazilayotgan islohotlar nafaqat banklarning, balki butun iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlashga asos bo‘ladi.

O‘zbekistonda muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan AKTni rivojlantirish, jamiyatda elektron-axborot almashinuvini joriy qilish va takomillashtirish, jumladan bank tizimiga AKTni joriy etish, hisob-kitoblarning va to‘lovlarning elektron shaklini joriy qilish, masofadan turib pul mablag‘larini tasarruf etish imkoniyatlarini yaratish, ularning me’yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish orqali mamlakatimizda ham naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini yanada rivojlanishiga, qolaversa, tijorat raqamli banklari tomonidan AKT asosida mijozlarga yangi turdagi sifatli xizmatlar ko‘rsatishning takomillashishiga asos bo‘lmoqda.

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” va “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”da milliy iqtisodiyot, sanoat va umuman jamiyatda raqamli transformatsiyani amalga oshirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan, jumladan bank tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish» vazifalari belgilangan.

Ma’lumki, yurtboshimizning mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida siyosiy modernizatsiya jarayonlarida tobora muhim ahamiyat kasb etib borayotgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan davlat va jamiyat qurilishi tizimida keng foydalanish lozimligi alohida ta’kidlangan edi.